



**ANVAR HOJIAHMEDOV**  
(1931 - 2018)

Anvar Hojiahmedov – O'zbekistondagi yirik adabiyotshunos olimlardan biri, filologiya fanlari doktori, professor. U 1963-yili «XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida rus adabiyotidan qilingan tarjimalar va ularning o'zbek adabiyoti rivojidagi ahamiyati» mavzuyida nomzodlik, 1974-yilda «XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida o'zbek adabiy aloqalari» mavzuyida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Uzoq yillar davomida Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida ilmiy-pedagogik faoliyat olib borgan.

Anvar Hojiahmedovning ilmiy tadqiqotlari adabiy hamkorlik, mumtoz adabiyotda badiiy mahorat, aruz nazariyasi va amaliyoti, maktablarda o'zbek adabiyotini o'qitish uslubiyati muammolariga bag'ishlangan. Ulardan «Adabiyotlarimiz hamkorligi tarixidan» (1966), «Maktabda aruz vaznini o'qitish» (1978, 1995), «Aruz nazariyasi asoslari» (1982), «O'zbek aruzi lug'ati» (1998), «She'riy san'atlar va mumtoz qofiya» (1998), «Mumtoz badiiyat malohati» (1999), «Ogahiy dahosining olmos qirralari» (1999), «Navoiy aruzi: qafosati» (2006), «Husni ta'lim san'ati» (2008), «Mumtoz badiiyat lug'ati» (2008) kitoblarini atohida ajratib ko'rsatish mumkin.

Anvar Hojiahmedov

# ARUZ NAZARIYASI ASOSLARI



ISBN 978-9943-985-65-0



9 789943 985650

Anvar Hojiahmedov

# ARUZ NAZARIYASI ASOSLARI

Qo'llanma

Toshkent  
«Akademnashr»  
2018

UO'K: 801.6(075)  
 KBK: 83.3(50')  
 H-59

H-59

**Hojiahmedov, Anvar**

Aruz nazariyasi asoslari / A. Hojiahmedov. — Toshkent: Akademnashr, 2018. — 80 b.

ISBN 978-9943-985-65-0

UO'K: 801.6(075)  
 KBK: 83.3(50')

## SO'ZBOSHI

So'nggi yillarda yoshlarimiz orasida mumtoz poetikani o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortishi zamonaviy kitobxonning mumtoz adabiyotimizni anglashga bo'lgan ehtiyoji mahsuli deb qaralishi mumkin. Bu ehtiyojning muayyan ma'noda qondirilishida ustoz olim, filologiya fanlari doktori, professor Anvar Hojiahmedovning hissasi katta bo'lgan desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Ustoz A. Hojiahmedov o'tgan asr so'ngidan boshlab mumtoz poetika, xususan, aruz ilmi, badiiy san'atlar, qofiya ilmi, mumtoz she'r navlari borasida qator risolalar e'lon qilib, unutilib borayotgan, o'rganilishi va o'zlashtirilishi mumkin emasdek tasavvur uyg'otgan ilmlar: aruz va qofiya ilmiiga yangidan jon bag'ishladi. Olimning «Maktabda aruz vaznini o'rganish», «She'riy san'atlar va mumtoz qofiya», «She'r san'atlarini bilasizmi?», «Mumtoz badiiyat malohati», «O'zbek aruzi lug'ati», «Mumtoz badiiyat lug'ati» kabi ko'plab qo'llanmalari, «Ogahiy dahosining olmos qirralari», «Navoiy aruzi nafosati», «Husni ta'lii san'ati» kabi monografiyalari bu borada dadil qadamlardan bo'ldi. Bugungi avlod mumtoz poetika masalalarini aynan shu risolalardan o'rgangan deyish mumkin. Shu ma'noda ustoz A. Hojiahmedovni bugun muayyan ma'noda poetika sirlaridan saboq berayotgan har bir o'qituvchi va murabbiy o'zining ma'naviy ustozini deb biladi. To'g'ri, so'nggi yillarda mumtoz poetikani tadqiq etish borasida boshqa olimlarimiz ham jonbozlik ko'rsatib, ko'plab risolalar yaratdilar. Lekin tan olib aytish kerakki, ularning tadqiqotlari Hojiahmedov domtaning kitoblari kabi ommalashmadi, keng kitobxonlar orasiga kirib bormadi. Zahmatkash olimning risolalari, birinchi navbatda, tilining soddaligi, masalaning konkret qo'yilishi, muammolarning tadrijiylik asosida hal qilinishi bilan e'tibor qozondi. Shuningdek, risolalarning bu qadar ommalashuvida ustozning ko'p yillar universitetda mumtoz poetikadan saboq bergani va shu asosda masalaga to'plangan ko'pyillik tajribalar asosida yondashgani ham sabab bo'ldi.

*Qo'lingizdagi kitobda mumtoz adabiyotimizning negizi bo'lmish aruzning nazariyasi asoslari batafsil tahlil qilingan. Kitob adabiyotshunoslar, filologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar, maktab o'qituvchilari va o'quvchilari, shuningdek, mumtoz adabiyotga qiziquvchi keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.*

Mas'ul muharrir va so'zboshi muallifi:

**Dilnavoz YUSUPOVA**, filologiya fanlari nomzodi

ISBN 978-9943-985-65-0

© Anvar Hojiahmedov  
 «Aruz nazariyasi asoslari»  
 © Akademnashr, 2018

Bugungi adabiyotimizning ma'naviy zamini sanalgan, ming yillik badiiy xazinaga ega bo'lgan mumtoz adabiyotimizni tushunish, his qilish, tahlil va taqin etishda uning asosini tashkil qilgan aruz vaznidan chuqur xabardor bo'lish har qanday she'riyat ixlosmandi uchun muhimdir. Shu ma'noda professor A. Hojiahmedovning bugun Sizga qayta taqdim etilayotgan «Aruz nazariyasi asoslari» qo'llanmasi aruz tizimi va uning nazariy asoslari haqida ma'lumot berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qo'llanmada aruz tizimi sodda uslubda, kitobxonga tushunarli tilda, tadrijiylik asosida tushuntiriladi. Dastlab o'quvchiga aruzning ilk nazariy asoslari bo'lmish qisqa, cho'ziq va o'ta cho'ziq bo'g'inlar haqidagi muodili: sabab, vatad va fosilaga ta'rif beriladi, bu tushunchalar orasidagi o'xshash va farqli jihatlarga to'xtab o'tiladi. Aruzni o'rganishdagi keyingi bosqich sifatida ruknlar, ularning tuzilishi va turlariga e'tibor qaralib, ushbu ruknlarning bahrlarni hosil qilishdagi o'rni belgilanadi, bahrlar tasnifi amalga oshiriladi. Shu tariqa risolada 11 bahr, 100 ga yaqin vaznlar mumtoz shoirlarimizdan keltirilgan baytlar vositasida tahlil qilinadi. Risolada har bir vaznga to'xtalinar ekan, statistik ma'lumotlar asosida ushbu vaznlarning mumtoz ijodkorlarimiz she'riyatidagi o'rni ham e'tibor qaraliladi, ularning ohang yaratish imkoniyatlari tadqiq qilinadi. Umuman olganda, mazkur qo'llanma muhtaram kitobxonlarimizga murakkab she'riy tizim bo'lmish aruz ilmini o'rganish yo'lida muhim dasturilamal bo'lishiga shak-shubha yo'q. Ushbu kitobni o'qish va undagi bilimlarni o'zlashtirish orqali hosil bo'ladigan savobdan marhum ustozimizning qabrlari munavvar, ruhlari shod bo'lsin!

**Dilnavoz YUSUPOVA,**  
*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi*

## KIRISH

Asrlar davomida mumtoz she'riyatimizda foydalanib kelingan, hozirgi kunda ham o'zbek poeziyasida qo'llanayotgan aruz vazni ancha murakkab she'riy o'lchov sistemasi. U 19 bahrdan iborat, muammasi sub 100 dan ortiq vaznni o'z ichiga oladi. 11 bahrning 90 ga yaqin vaznlaridan shoirlarimiz o'zlarining lirik va liro-epik asarlarini yaratishda foydalanishganlar.

Mumtoz she'riyatimizning o'lmas obidalarini, shuningdek, o'zbek shoirlarining aruz asosida yaratilgan asarlari g'oyaviy-badiiy qimmatini chuqur anglab yetish uchun mazkur she'riy o'lchov sistemasi nazariy asoslarini puxta bilib olish shart. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan vaznlarning ritmik xususiyatlari, rukn va sxemalarini o'zlashtirmay tushib aruz vazni asosida yozilgan asarlarni ifodalari o'qish ham mumkin emas.

Vazn she'riy asarning shakli ko'rinishlaridan biri sifatida uning mazmunini badiiy ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Shoir hech qachon u yoki bu vaznga tasodifan murojaat etmaydi, u hamisha asar g'oyasi, yaratilajak lirik yoki epik qahramon qiyofasi, xarakterini nazarda tutgan holda shu qiyofani, xarakterni yan qinroq gavdalantirishga, uning ichki olamini chuqurroq ochishga imkon beradigan vaznni tanlaydi. Shubhasizki, mazmunga mos vaznni aniqlash muayyan izlanishlarni talab qiladi. Shunday ekan, mumtoz asarlar vazni, ritmik xususiyatlari saqlab o'qilgandagina shoirning g'oyaviy-badiiy muddaosini anglab yetish mumkin.

Biron shoir ijodi o'rganilar ekan, u yaratgan she'riyatning vazni xususiyatlarini tadqiq etish badiiy mahorat, uslub, ana va no-vatorlik kabi masalalarni hal etish jihatidan alohida ahamiyatga ega. Ijodkor tomonidan foydalanilgan vaznlar badiiy shakldagi xalqchillikning ham ifodasi sanaladi. Binobarin, vaznlar doirasini o'rganish shoir bilan xalq og'zaki ijodi, xalq musiqasi o'rtasidagi munosabatlarni ham aniqlash imkonini beradi.

Asarlarning vazni xususiyatlari ustida ishlash badiiy til muammasini hal qilish nuqtayi nazaridan ham qiziqarliqdir. Shoirning

### Aruz nazariyasi asoslari

Biron bahrning barcha vaznlarini o'zlashtirib olgach mashq xarakterini o'zgartirasiz: avval siz o'zlashtirgan bahr raqamini topasiz-da, devondan shu bahrda yaratilgan biron asar raqamini belgilaysiz. Bu holda shu asarning qaysi bahrda yozilganligini bilasiz-u, lekin uning vaznini hali bilmaysiz. Keyin asarni devondan topasiz-da, uning ruknlari, sxemasini belgilab vaznini aniqlaysiz. Qanchalik to'g'ri xulosaga kelganingizni aniqlashni istasangiz vazn raqamini ko'zdan kechirishingiz kifoya. Bu xil mashqlar mutasil davom etsa, aruz nazariyasi va amaliyotini puxta o'zlashtirishingiz qiyin emas.

### Anvar Hojiahmedov

o'z asarlari musiqiylikini ta'minlashda u yoki bu vaznlar vositasida so'z san'atidan, vazn va qo'fiya, vazn va radif munosabatlari-dan, unli va undosh tovushlar munosabatidan foydalanish mahorati ham shu jarayonda aniqlanadi.

Binobarin, yuqorida o'rganilgan vaznlarni puxta o'zlashtirib olish she'riyatdagi badiiyat masalalarini tahlil qilishning zaruriy shartlaridan biridir.

Aruz nazariyasi sohasida olingan ma'lumotlar tekstologik tadqiqotlar olib borishda ham nihoyatda qo'l keladi. U yoki bu asarning matni aniqlanar ekan, vaznga asoslanib ish ko'rish mis-ralarda so'zlarning joylashishi, talaffuzini belgilashga, yetishma-yotgan so'z yoki bo'g'inlarni aniqlashga imkon beradi.

Ko'rinadiki, aruz vaznining nazariy va amaliy masalalari o'zbek adabiyoti tarixini chuqur va atroflicha o'zlashtirish uchun nihoyatda zarurdir. Mazkur ilmiy egallash, yuzaki qaraganda, ancha mushkuldek ko'rinadi. O'nlab ruknlar, bahrlar, vaznlarning nomlarini, sxemalarini yodlab olish, har bir vaznning ohangini o'zlashtirish oson ish emas, albatta. Ammo muttasil izchil muto-laa va mashq vositasida aruz nazariyasi asoslarini o'zlashtirish mumkin.

Ruknlar, ularning tuzilishi, turlari va sxemasi, bahrlarning nomlarini yodlab olish lozim. Xilma-xil vaznlarning ruknlari va sxemasi esa kitobchada berilgan misollar ustida mashq qilish bi-ling o'zlashtiriladi.

O'rganilgan nazariy ma'lumotlarni puxta bilib olish va adabi-yotimizda qo'llangan vaznlarni osongina aniqlash malakasi-ni hosil qilishda O'zbekiston Fanlar akademiyasi tomonidan 1959 – 1960-yillarda nashr qilingan «Xazoyin ul-maoniy» asari jildlaridan foydalanish ijobiy natija beradi. «Xazoyin ul-maoniy»ning har bir devoni so'ngida bir qator ilovalar mav-jud, jumladan, devonga kiritilgan har bir she'rning qaysi bahr va vaznda yozilganini raqamlar vositasida ko'rsatilgan, keyin esa shu devonda foydalanilgan bahrlar, ularning vaznlari, har bir vaznning ruknlari va sxemasi (paradigmasi) berilgan. Bahr va vaznlarni o'zlashtirish ustida ishlar ekansiz, avvalo, biron asarning vazn ko'rsatkichini, shu vazn ruknlari va sxemasi-ni aniqlang, so'ng ana shu asarni devondan toping-da, uning baytlaridagi ruknlarni, sxemasini aniqlash yuzasidan mashq qiling.

### ARUZ VAZNI NAZARIYASI ASOSLARI

Sharq mumtoz adabiyotida keng qo'llanib kelgan aruz vazni she'r misralarida qisqa va cho'ziq bo'g'inlarning muayyan tartibda guruhlanib takrorlanishiga asoslanadi. Hozirgi she'riyatimizning asosiy o'lchov sistemasi hisoblangan barmoq ham she'r misralarida bir xil miqdordagi bo'g'inlarning muayyan tartibda guruhlanib takrorlanishini taqozo etadi. Ammo uning uchun bo'g'inlarning sifati, ya'ni qisqa yoki cho'ziqligi ahamiyatsizdir. Masalan, H. Olimjonning «O'zbekiston» she'ridan olingan quyidagi misralarni ko'zdan kechiraylik:

*Vodiydami yayov kezganda*

*Bir ajib his bor edi menda.*

*Daryolardan kuylab o'tardim,*

*Qo'shiqlarga quloq tutardim.*

Shu misralardagi bo'g'inlarni aniqlasak, quyidagi sxema paydo bo'ladi:

---  
-V---  
---  
V---

Ko'rinadiki, har qaysi misrada 9 tadan bo'g'in bo'lib, u 4 + 5 tarzida turoqlarga bo'linib takrorlanadi. Lekin misralardagi cho'ziq va qisqa bo'g'inlar soni har xil, o'rni ham muayyan emas, ya'ni ular istagan miqdorda va istagan o'rinda kela oladi. Aruz sistemasi esa har qaysi misradagi qisqa va cho'ziq bo'g'inlar soni bir xil, o'rni ham muayyan bo'ladi. Masalan, Alisher Navoiyning bir g'azali matlasini ko'zdan kechiraylik:

*Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro' kelmadi,*  
*Ko'zlarimga kecha tong otquncha uyqu kelmadi.*

Shu baytning sxemasini tuzsak, quyidagi manzarani hosil qilamiz:

-V--- -V--- -V--- -V---  
-V--- -V--- -V--- -V---

Diqqat qilinsa, har qaysi misrada 15 tadan bo'g'in bor, ularning 11 tasi cho'ziq, 4 tasi qisqa ekanini, ana shu cho'ziq va qisqa bo'g'inlar misralarda ma'lum o'rinlarda kelayotganini ko'rish mumkin.

Cho'ziq va qisqa bo'g'inlarning shu tarzda takrorlanishi mayin musiqiy ritm – ohangni ta'minlaydi. Yana bir misol. Furqatning «Sayding qo'ya ber, sayyod» musaddasidan ikki misrani shu tarzda ko'zdan kechiraylik:

*Sayding qo'ya ber, sayyod, sayyora ekan mendek,*  
*O'ldimini bo'yindin, bechora ekan mendek.*

Bu misralarning sxemasini shunday ko'rsatish mumkin:

---V V--- ---V V---  
---V V--- ---V V---

Binobarin, mazkur baytning har misrasida 14 tadan bo'g'in bor, ularning 10 tasi cho'ziq, 4 tasi qisqa. Ana shu bo'g'inlar misralarda ma'lum o'rinlarda barqaror takrorlanadi.

Aruz sistemasiga mansub istalgan vazni olib qarang, ularda ana shu qoida qat'iy saqlanishini ko'rasiz.

Yuqoridagi parchalarga e'tibor qilsak, cho'ziq va qisqa bo'g'inlar har qaysi misrada muayyan tarzda ritmik guruhlariga uyushib takrorlanayotganligini ko'ramiz. Barmoq sistemasidan farqli o'laroq, har qaysi guruhda so'z yoki so'zlar birikmasi tugallanishi shart emas, so'zlar yoki birikmalar bo'linib qolib, ikkinchi guruhga o'tib ketishi ham mumkin. Hamid Olimjon she'ridan olingan parchada har qaysi misradagi birinchi guruh – oldingi turoqlar «vodiylarni», «bir ajib his», «daryolardan», «qo'shiqlarga» tarzida tugallangan holdagi ko'rinishga ega. Bu barmoq sistemasiga xos qonun. Aruzda yozilgan she'rlarni ko'zdan kechirsak, birinchi misradagi «kecha kelgum» ritmik guruhidagi so'zlar keyingi guruhda davom etayotganini kuzatamiz.

Binobarin, bu xususiyat ham aruz sistemasiga xos sanaladi. Shuning uchun bu guruhlar barmoqda qo'llanadigan «turoq» termini bilan ifodalalanadi.

Aruz sistemasining nazariy masalalarini puxta o'zlashtirib olish, bu sistema asosida yaratilgan she'riy asarlarni to'g'ri va ifodali o'qish, ularni g'oyaviy-badiiy tahlil qilish uchun bo'g'inlar hamda ruknlarining xususiyatlari, turlari, she'r tuzilishidagi o'rmon puxta bilib olish zarur.

### QISQA, CHO'ZIQ VA O'TA CHO'ZIQ BO'G'INLAR

She'riy misralarda musiqiy ohangni unli va undosh tovushlarning muayyan tartibdagi takrori yuzaga keltiradi. Shu tufayli ham aruz nazariyasiga oid ilmiy asarlarda sokin (mustaqil undosh yoki cho'ziq unli) hamda mutaharrik (harakatlanuvchi, ya'ni qisqa unli oldidagi undosh) harflar vazn yaratuvchi eng kichik elementlar sanalgan. Bunday harflar arab grafikasigina xos bo'lib, biz ular asosida ish ko'rolmaymiz. O'zbek adabiyotshunosligida aruz sistemasining eng kichik elementlari sifatida bo'g'in qabul qilingan. She'riy vazn uch xil -- qichqa, cho'ziq va o'ta cho'ziq bo'g'iniga asoslanadi.

Qisqa talaffuz qilinuvchi unliidan iborat bo'lgan yoki shunday unli bilan tugaydigan ochiq bo'g'inlar **qisqa bo'g'in** deb ataladi. Ular vazn sxemasida "V" yoki "U" belgisi bilan ifodalanadi.

Cho'ziq talaffuz qilinuvchi unliidan iborat bo'lgan yoki shunday unli bilan tugallangan ochiq bo'g'inlar, shuningdek, tarkibida qisqa unli bor yopiq bo'g'inlar **cho'ziq bo'g'in** sanaladi. Bunday bo'g'inlar vazn sxemasida «-» (tire) belgisi bilan ifodalanadi. She'r misralaridagi bo'g'inlarning cho'ziq yoki qisqaligi ularning yozilishiga qarab emas, vaznga muvofiq o'qilishiga ko'ra aniqlanadi. Masalan, Mashrab g'azalidan quyidagi parchani ko'zdan kechiraylik:

*Ko'rsat jamoling mastonalarg'a,  
Ishqingda kuygan parvonalar-g'a.*

Misralarni vaznga muvofiq o'qib turib bo'g'inlarga ajratsak, ularning quyidagi sxemada ekanini ko'ramiz:

Ko'r-sat	ja-mo-ling	mas-to-na-lar-g'a,
- - -	V - - -	- - - V - - -
Ish-qing-da	kuy-gan	par-vo-na-lar-g'a.
- - - V	- - -	- - - V - - -

Ya'ni **ko'r, sat, ling, mas, lar, ish, qing, kuy, gan, par, lar** bo'g'inlari tarkibida qisqa unli bo'lgan yopiq bo'g'in sifatida, **mo, to, g'a, vo, g'a** bo'g'inlari esa cho'ziq unli bilan tugagan ochiq bo'g'inlar sifatida cho'ziq bo'g'in deb belgilanadi. **Ja, na, da, na** bo'g'inlaridagi «a» unlisi qisqa o'qiladi, shu tufayli ular qisqa bo'g'in sanaladi.

Shuni ham bilib qo'yish kerakki, cho'ziq bo'g'inning har ikki turi bir xil belgi bilan ifodalansa da, ular ohang yaratilish jihatidan teng emas: ochiq cho'ziq bo'g'in yopiq cho'ziq bo'g'iniga qaraganda yoqimlir o'hang beradi. Yopiq cho'ziq bo'g'in tarkibida cho'ziq unli kelsa, u ancha cho'ziq talaffuz etiladi. Bunday bo'g'inlar *o'ta cho'ziq bo'g'in* sanaladi. Shuningdek, qo'sh undosh bilan tugallanadigan bo'g'inlar ham o'ta cho'ziq bo'g'in hisoblanadi. Bunday bo'g'inlar misra ichida «-V» belgisi bilan, misra oxirida esa «~» belgisi bilan ifodalanadi. Masalan, Boburning she'ridan olingan quyidagi parchaga e'tibor boring:

*So'rma holimniki, bo'ldum burnog'idin zorroq,  
Jism jondin zor-u, jonim jismdin afgorroq.*

Baytini vaznga muvofiq o'qisak, birinchi misradagi «**zorroq**» so'zining har ikki bo'g'ini, «**afgorroq**» so'zining keyingi ikki bo'g'ini tarkibidagi «o» unlisi cho'ziq talaffuz qilinishi tufayli boshqa yopiq bo'g'inlardan farqlanib turadi. Chunki ular o'ta cho'ziq bo'g'inlardir. Keyingi misradagi «jism» bo'g'inlari esa qo'sh undosh bilan tugallangan. Shunga ko'ra, ular ham o'ta cho'ziq bo'g'in deb belgilanadi. Binobarin, baytning vazn sxemasi quyidagicha tuziladi:

So'r - ma	ho - lim - ni - ki	bo'l - dum	bur - no - gi	- din - zor - roq.
- - - V	- - - V - - -	- - - V - - -	- - - V - - -	- - - V - - -
Jism jon -	af - gor - roq.	af - gor - roq.		
- - - V	- - - V - - -	- - - V - - -	- - - V - - -	- - - V - - -

Boburning quyidagi baytini ham qarab o'taylik:

*Yoz fasli, yor vasli, do'stlarning suhbatlari,  
She'r bahsi, ishq dardlari, bodaning kayfiyati.*

O'qishga alohida diqqat qilinmasa, misralardagi musiqiy ohang chiqmaydi. Ifodali o'qishga erishish uchun «yoza», «yor», «do'st», «she'r», «ishq» bo'g'inlari tarkibidagi unillarni cho'ziq talaffuz etish lozim, zero, ular o'ta cho'ziq bo'g'inlardir. Baytning vazn sxemasi esa quyidagicha:

Yoz fas - li, yor vas - li, do'st - lar - ning suh - ba - ti,  
-V - - -V - - -V - - -V - - -V - - -V - - -V - - -V - - -

She'r bah - si, ishq dar - di, bo - da - ning kay - fi - ya - ti.  
-V - - -V - - -V - - -V - - -V - - -V - - -V - - -V - - -

Aruz sistemasi qoidalariga muvofiq bo'g'inlar bir-biriga qo'shilib ketaveradi. Xususan, yopiq bo'g'in oxiridagi undosh vazn sharti bilan o'zidan keyingi unli bilan qo'shib o'qilishi mumkin. Buni **vast** hodisasi deyiladi. Mazkur holatda cho'ziq bo'g'in qisqa bo'g'in yoxud o'ta cho'ziq bo'g'in ochiq cho'ziq bo'g'iniga aylantirilishi qolishi mumkin.

Ko'rinib turibdiki, o'ta cho'ziq bo'g'inlar ritm-ohang hosil qilishda alohida ahamiyatga ega.

Bo'g'inlar haqidagi yuqorida aytilgan ma'lumotlarni amaliy jihatdan puxta o'zlashtirmay turib aruz nazariyasining boshqa masalalariga kirishib bo'lmaydi. Buning uchun esa aruzda yaratilgan she'riy asarlardan olingan baytlar tarkibidagi bo'g'inlarning cho'ziq-qisqaligini aniqlash yuzasidan imkon qadar ko'proq mashq qilish lozim. Shunga erishish kerakki, bo'g'inlar sifatini o'qish davomida osonlik bilan belgilash mumkin bo'lsin. Xususan, o'ta cho'ziq bo'g'inlarga alohida e'tibor berish lozim. Mashq uchun misollar:

Sensan sevarim, xoh iron, xoh inonma,  
Qondur jigaram, xoh iron, xoh inonma.

(Lutfiy)

Meni men istagan o'z suhbatig'a arjumand etmas,  
Meni istar kishining suhbatin ko'nglum pisand etmas.

(Navoiy)

Ko'rdum yuzungni, devona bo'ldim,  
Aql-u hushimdin begona bo'ldim.

(Mashrab)

Navbahor, ochildi gullar, sabza bo'ldi bog'lar,  
Suhbat aylaylik, kelinglar, jo'ralar, o'rtog'lar.  
(Muqimiy)

Do'stlar, aysh-u tarab fasli bahor istar ko'ngul,  
Har kuni sahroda sayri lokazor istar ko'ngul.  
(Furqat)

## VATAD, SABAB, FOSILA

Qisqa va cho'ziq bo'g'inlarning birikuvidan **sabab**, **vatad**, **vast** deb atalgan elementlar tashkil topadi.

**Sabab** bir cho'ziq yoxud ikki qisqa bo'g'in demakdir. Bir cho'ziq bo'g'indan iborat bo'lgan sabab (sxemasi: →) **yengil sabab** (sababi xafif) deb, ikki qisqa bo'g'indan tuzilgan sabab (sxemasi: V V) esa **og'ir sabab** (sababi saqiy) deb ataladi.

Bir cho'ziq bo'g'in bilan bir qisqa bo'g'inning birikuvidan **vatad** deb atalgan element tuziladi. Bunday birikmada qisqa bo'g'in cho'ziq bo'g'inning oldida yoki orqasida kelishi mumkin. Shunga ko'ra, vatadlar ikki xil bo'ladi:

1. Vatadi majmu', ya'ni qo'shilgan vatad.
2. Vatadi mafruq, ya'ni ajratilgan vatad.

**Vatadi majmu'** cho'ziq bo'g'inning o'zidan oldin kelgan qisqa bo'g'in bilan birikuvidan tuziladi va sxemada V— belgisi bilan ifodalanganadi.

**Vatadi mafruq** esa, aksincha, cho'ziq bo'g'inning o'zidan keyin kelgan qisqa bo'g'in bilan birikuvidan tuziladi va sxemada V belgisi bilan ko'rsatiladi.

Vatadlar tarkibidagi cho'ziq va qisqa bo'g'in bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, qo'shib talaffuz qilinadi. Masalan, «**go'zal vatan**» birikmasidagi har ikki so'z bo'g'inlarining tuzilishi jihatidan vatadi majmu'ga misol bo'la oladi. Ularda birinchi bo'g'inlar qisqa bo'lib, keyingi cho'ziq bo'g'in bilan birikib kelgan, bir-biridan ajralmagan holda talaffuz qilinadi. Shuningdek, **kitob**, **hayot**, **quyosh**, **bahor** kabi so'zlar ham vatadi majmu'ni ifodalaydi. Furqatning «Gimnaziya» she'ridagi:

Dema gimnazyakim, bir guliston  
Erur, har yonda gulchinlar xiromi, —



baytini ko'zdan kechirsak, uning vazn sxemasi quyidagicha bo'ladi:

V --- V --- V ---  
 V --- V --- V ---

Bu misralardagi 1-2-, 5-6- va 9-10-bo'g'inlar, ya'ni birinchi misradagi «**dema**», «**ziya**», «**gulis**», ikkinchi misradagi «**eru**», «**da gul**», «**xiro**» bo'g'in birikmalari vatadi majmu'dan tashqir topgan. Qolgan cho'ziq bo'g'inlar sabab hisoblanadi. Yuqoridagi misralarning tuzilishini quyidagicha ko'rsatish mumkin:

vatad sabab sabab-vatad sabab sabab-vatad sabab  
 V --- V --- V --- V ---

Navoiyning «Ul shayxki» g'azalidan quyidagi parchani ko'raylik:

*Ul shayxki minbar uza afsung'a berur tul,  
 Shaytondir o'zi, majlisining ahli suruk g'ul.*

Bu baytning sxemasi tubandagicha:

-- V V -- V V -- V V --  
 -- V V -- V V -- V V --

E'tibor berilsa, misralarning vatad hamda sabablardan tuzilganini ko'rish mumkin. Har qaysi misradagi 2-3-, 6-7-, 9-10- bo'g'in kelgan **vatadi mafruq** (cho'ziq bo'g'inidan keyin qisqartirilgan) ni tashkil etgan bo'lsa, 4-5-, 8-9-, 12-13-bo'g'in kelgan **vatadi majmu'** ni hosil qilgan. Birinchi va oxirgi, 14-bo'g'in kelgan esa sababdir. Ya'ni baytning har qaysi misrasi:

sabab vatadi mafruq / vatadi majmu' vatadi mafruq / vatadi majmu' vatadi mafruq / vatadi majmu' sabab

**Fosila** esa ikki yoki uch qisqa bo'g'inning o'zidan keyin keluvchi bir cho'ziq bo'g'in bilan birikshidan hosil bo'ladi. Agar ikki qisqa bo'g'in bilan cho'ziq bo'g'in biriksa, **kichik fosila** (fosilayi sug'ro) tuziladi va u sxemada V V - tarzida

rsatiladi. Uch qisqa bo'g'indan so'ng cho'ziq bo'g'in kelib qolgan bo'lsa, bu **katta fosila** (fosilayi kubro) sanaladi u sxemada V V V - tarzida ko'rsatiladi. Shuni ham aytib o'tish lozimki, katta fosila o'zbek she'riyatida deyarli qo'llanilmagan.

## RUKNLAR, ULARNING TUZILISHI VA TURLARI

Sabab, vatad va fosilalarning birikuvidan she'riy misralarni hosil qiluvchi eng yirik bo'laklar - ruknlar yuzaga keladi.

Bir sabab bilan vatadi majmu' birikmasidan «**faulun**» va «**foilun**» ruknlari hosil bo'ladi. Agar vataddan so'ng sabab kelsa, «**faulun**» rukni, aksincha, sababdan so'ng vatad kelsa, «**foilun**» rukni tuziladi. Faulun rukni sxemada V - - tarzida, foilun rukni sxemada V - V - tarzida ifodalangani.

Ikki sabab bilan bir vatadning birikuvidan to'rtta to'rt bo'g'inli rukn tuziladi. Bular **mafoiyun**, **foilotun**, **mustaf'ilun** va **maf'ulotun** ruknlari.

Vatadi majmu'dan so'ng ikki sabab kelsa, **mafoiyun** rukni sxemasi V - - -, vatadi majmu' ikki sabab o'rtasida kelsa, **foilotun** rukni (sxemasi - V - -), vatadi majmu' ikki sababdan so'ng kelsa, **mustaf'ilun** rukni (sxemasi - - V -) hamda ikki sababdan so'ng vatadi mafruq kelsa, **maf'ulotu** rukni (sxemasi - - - V) hosil bo'ladi.

Vatad hamda fosilaning birikuvidan ham ikki rukn maydonga hosil bo'ladi. Ular **mutafoilun** va **mafoilatun** ruknlari.

Vatadi majmu' kichik fosiladan oldin kelganida **mafoilatun** rukni (sxemasi V - V -) hamda shu vatad kichik fosiladan keyin kelganida **mutafoilun** rukni (sxemasi V V - V -) tuziladi.

Shunday qilib, sabab, vatad hamda fosilalar birikuvidan aruz vaznining asillar deb ataluvchi quyidagi ruknlari hosil bo'ladi:

№	Rukn nomi	Sxemasi	№	Rukn nomi	Sxemasi
1.	faulun	V - -	5.	Mustaf'ilun	- - - V -
2.	foilun	- V -	6.	Maf'ulotu	- - - - V
3.	mafoiyun	V - - -	7.	Mutafoilun	V V - V -
4.	foilotun	- V - -	8.	Mafoilatun	V - V V -

## BAHRLAR, ULARNING TUZILISHI VA TURLARI

Aruz vaznidagi she'r o'lchovlarining asosiy turlari – bahr yuqoridagi 8 ruknning turli tartibda birikib takrorlanishidan hosil bo'ladi. Ularni quyidagicha guruhlash mumkin:

### I. Bir ruknning aynan takroridan tuzilgan bahrlar

Bunday bahrlar 7 ta, ma'ulotu ruknidan bo'lak, yuqoridagi yetti ruknning aynan takroridan hosil bo'ladi. Ya'ni **faulun** ruknidan **mutaqorib** bahri, **foilun** rukni takroridan **mutador** bahri, **mafoiyun** rukni takroridan **hazaj** bahri, **foilotun** ruknidan **ramal** bahri, **mustaf'ilun** rukni takroridan **rajaz** bahri, **mutafoilun** rukni takroridan **kamil** bahri, **mafoilatun** rukni takroridan **vofir** bahri hosil bo'ladi.

Bir baytda bu ruknlar to'rt marta takrorlansa, bunda vaznni **murabba'** (arabcha «to'rtlik» degani), olti marta takrorlansa, **musaddas** (arabcha «oltilik» degani), sakkiz marta takrorlansa, **musamman** (arabcha «sakkizlik» degani) deyurtiladi.

Misolalar:

*Zamona kulfatidin bu ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi,  
Bu charxi bemuravvatdin ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi.*

(Uvaysiy)

Mazkur baytning ruknlari va sxemasi quyidagicha:

*Za-mo-na kul fa-ti-din bu ko'-ngul do-g'o'l di do-g'o'l-di,*  
V - - - V - - - V - - - V - - - V - - -  
mafoiyun mafoiyun mafoiyun mafoiyun mafoiyun

*Bu char-xi be mu-ruv-vat-din ko'-ngul do-g'o'l di do-g'o'l-di,*  
V - - - V - - - V - - - V - - - V - - -  
mafoiyun mafoiyun mafoiyun mafoiyun mafoiyun

Ko'rinadiki, bu baytda mafoiyun rukni sakkiz marta takrorlangan. Demak, ana shu she'r **hazaji musammani solim** vaznidagi yozilgan ekan.

*Ko'z-din to'kuldi qon yoshim, men mubtalo qayga boray,  
Rahim aylamas ul mahvashim, men mubtalo qayga boray?*  
(Muqimiy)

Bu misralarning paradigmasi (ruknlari) va sxemasi quyidagidek bo'ladi:

*Ko'z-din to'-kul di qon yo-shim, men mub-ta-lo qay-ga bo-ray?*  
V - - - V - - - V - - - V - - -  
mustaf'ilun mustaf'ilun mustaf'ilun mustaf'ilun

*Xil-may-la-mas ul mah-va-shim, men mub-ta-lo qay-ga bo-ray?*  
V - - - V - - - V - - - V - - -  
mustaf'ilun mustaf'ilun mustaf'ilun mustaf'ilun

Baytda mustaf'ilun rukni 8 marta takrorlangan. Demak, bu baytning bahri **rajaz bo'lib**, vaznning nomi **rajazi musammani solim**dir.

*Ne xayol edi yanakim, ko'ngul qushi saydini havas aylading,  
Badanimga har soridin hadang otibon anga qafas aylading.*  
(Navoiy)

Ushbu bayt paradigmasi va sxemasi quyidagicha ko'rsatish mumkin:

*Ne xa-yol e-di ya-na-kim ko'-ngul qu-shi say-di-ni ha-va-say-la-ding,*  
V V - V - V V - V - V V - V - V - V V - V -  
mutafoilun mutafoilun mutafoilun mutafoilun

*Ha-da-nim-g'a har so-ri-din ha-dang u-ru-bon a-nga qa-fa-say-la-ding.*  
V V - V - V V - V - V V - V - V - V V - V -  
mutafoilun mutafoilun mutafoilun mutafoilun

Bu baytda mutafoilun rukni 8 marta takrorlangan. Shunga ko'ra, uning bahri **kamil** sanalib, vaznning nomi **kamili musammani solim** deb ko'rsatiladi.

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, bir xil ruknning aynan takrorlangan bahrlarning o'zbek adabiyotida eng ko'p qo'lla-

nadiganlari muta'qrib, hazaj, rajaz bahrlaridir. Shoiriarimiz dida bu bahrlarning asosan sakkiz ruknli vaznlari qo'llang. Ayniqsa, **hazaji musammani solim** va **rajazi musammani solim** vaznlarida har bir shoir anchagina lirik she'rlar yaratgan. Masalan, A.Navoiyning «Xazoyin ul-ma'noiy» kitobida kirgan 3132 she'rdan 259 tasi, jumladan, 245 g'azali hazaj musammani solim vaznida yozilgan. Muqimiyning ikki tomi tanlangan asarlariga kirgan she'rlarning 48 tasi shu vaznida yozilgan. Boshqa shoirilar yaratgan lirik asarlarning ham 8 – foizi shu vaznda bitilgan.

## II. Ikki xil rukndan tuzilgan bahrlar

Aruz vazniga mansub bir qator bahrlar ikki xil ruknning ma'lum tartibda takrorlanishidan yuzaga keladi. Bunday birikib takrorlanish ikki turlidir.

**Bittadan olingan ikki xil ruknning takrorlanishidan hosil bo'lgan bahrlar.** Bunday bahrlar bizga ma'lum 8 ruknning ikkita-ikkita bo'lib takrorlanishidan tuziladi.

1. Mafoiyulun va foilotun ruknlarining ketma-ket takrorlanishidan **muzori'** bahri yuzaga keladi. Ular bir baytda

«mafoiyulun foilotun  
mafoiyulun foilotun»

tarzida takrorlansa, **muzorei murabbayi solim** vazni,

«mafoiyulun foilotun mafoiyulun  
mafoiyulun foilotun mafoiyulun»

tarzida takrorlansa, **muzorei musaddasi solim** vazni,

«mafoiyulun foilotun mafoiyulun foilotun  
mafoiyulun foilotun mafoiyulun foilotun»

tarzida takrorlansa, **muzorei musammani solim** vazni hosil bo'ladi. Foilotun va mustaf'ilun ruknlarining birikib takrorlanishidan esa **xafif** va **mujtass** bahrlari tuziladi. Foilotun rukni mustaf'ilundan oldin kelib takrorlansa, **xafif** bahri hosil bo'ladi.

Ularning o'rin almashinib takrorlanishidan esa **mujtass** bahri yuzaga keladi.

Mustaf'ilun va maf'ulotu ruknlari takroridan **munsarih** va **muqtazab** bahrlari tuziladi. Agar mustaf'ilun rukni maf'ulotundan avval kelib takrorlansa, **munsarih** bahri hosil bo'ladi. Maf'ulotu rukni mustaf'ilun ruknidan avval kelib takrorlanganda esa **muqtazab** bahri tuziladi.

Foilotun hamda mafoiyulun ruknlarining birikib takrorlanishidan **qarib** bahri tuziladi.

Foilotun va foilun ruknlarining ketma-ket takrorlanishidan **ma'rif** bahri, mustaf'ilun va foilun ruknlarining ketma-ket takrorlanishidan **basit** bahri hosil bo'ladi.

## IKKITA BIR XIL VA BITTA BOSHQA XIL RUKNLARNING TAKRORLANISHIDAN TUZILGAN BAHRLAR

Bunday bahrlar har bir misrada uch ruknning ma'lum tartibda takrorlanishidan hosil bo'ladi. Ulardan ikkita bir xil, uchinchisi boshqa xil rukndan iborat. Bir misrada uchta, bir baytda esa oltita rukni ishtirok etgani uchun bunday bahrlar olti ruknlik, ya'ni musammanlikda shaklidagina namoyon bo'ladi, ular murabba' va musammanlik ko'rinishlariga ega emas.

1. **Qarib bahri.** Bu bahr ikkita mafoiyulun va bitta foilotun rukni takroridan tuziladi. She'r baytlarida doimo

«mafoiyulun mafoiyulun foilotun  
mafoiyulun mafoiyulun foilotun»

tarzida qo'llanib, qaribi musaddasi solim vazni ko'rinishini hosil qiladi.

2. **Mushokil bahri.** Bu bahr ikkita mafoiyulun va bitta foilotun rukni takroridan tuziladi. Solim ruknlarining har bir baytda

«foilotun mafoiyulun mafoiyulun  
foilotun mafoiyulun mafoiyulun»

tarzida takrorlanishidan mushokil bahrlarining **mushokili musaddasi solim** vazni hosil bo'ladi.

3. **G'arib bahri.** Bu bahr ikkita foilotun va bitta mustaf'ilun rukni takroridan tuziladi. Bu ruknlar har qaysi baytda solim hoida

«foilotun foilotun mustaf'ilun  
foilotun foilotun mustaf'ilun»

tarzida takrorlanishidan **g'aribi musaddasi solim** vazni hosil bo'ladi.

4. **Sari' bahri.** Bu bahr ikkita mustaf'ilun va bitta maf'ulot rukni takroridan tuziladi. Bu ruknlarning she'r baytlarida

«mustaf'ilun mustaf'ilun maf'ulotu  
mustaf'ilun mustaf'ilun maf'ulotu»

tarzida takrorlanishidan **sariyi musaddasi solim** vazni hosil bo'ladi.

Shunday qilib, aruzning 19 bahri bilan tanishdik. **Hazaj, ramal, mutaqorib, muzori', xafif, mujtass, sari'** bahrlari o'zbek shoirilari ijodida keng qo'llangan, **mutadorik, komil, munsarih** bahrlarida yaratilgan she'riy asarlar uncha ko'p emas. Ulardan sakkiztasi, xususan, **vofir, muqtazab, tavaddud, basit, qarib, mushokil, g'arib** bahrlaridan she'riyatda foydalanilmaydi.

## ZIHOFLAR

Aruz vaznining murakkabliklaridan biri shundaki, biz yuqoridagi ko'pincha turli o'zgarishlar bilan qo'llanadi. Bu o'zgarishlar aruz ilmda **zihof** deb yuritiladi. Sakkiz rukn hammasi bo'lib 45 xilga ajratilishi mumkin:

1. Ruknlarning tarkibidagi bo'g'inlarning son jihatidan o'zgarishi, ya'ni bo'g'inlarning tushirilishi yoki ortirilishi.
2. Ruknlarning tarkibidagi bo'g'inlarning sifat jihatidan o'zgarishi, cho'ziq bo'g'inlarning qisqa yoxud o'ta cho'ziq, shuningdek, qisqa bo'g'inlarning cho'ziq bo'g'inlarga aylantirilishi.
3. Yuqoridagi ikki xil o'zgarishning bir vaqtda qo'llanilishi, ya'ni ruknlarning tarkibidagi bo'g'inlarning bir vaqtda ham son, ham sifat jihatidan o'zgartirilishi.

Aruz vaznining asosi bo'lgan ruknning turli xil o'zgarishlarga duch kelishi natijasida ularning o'zgarigan ko'rinishlari,

ko'rinishlari, ya'ni tarmoq ruknlari hosil bo'ladi. Bunday tarmoq ruknlari soni har bir asosiy ruknda har xil miqdorga va har xil ko'rinishga ega.

## MAFOIYLUN RUKNI TARMOQLARI

Mafoiyulun rukni yuqoridagi zihoflardan 12 tasida uchraydi, demak, bu ruknning 12 xil tarmoq ko'rinishi mavjud.

### I. Bo'g'inlarning son jihatidan o'zgarishi natijasida hosil bo'lgan tarmoq ruknlari

1. **Maf'ulun** – mafoiyulun ruknining «xarm» («burunni kesish») zihofiga duch kelib, birinchi qisqa bo'g'inini tushirilishidan hosil bo'ladi: mafoiyulun ruknining birinchi bo'g'inini «ma» tushirilgach, qolgan foiyulun qismi o'ziga teng maf'ulu rukni bilan almashtiriladi va «burni kesik» ma'nosida **axram** deb yuritiladi.

2. **Faulun** – «hazf» («tashlash») zihofiga duch kelishdan hosil bo'ladi: mafoiyulun ruknining oxirgi bo'g'inini «lun» tushiriladi va qolgan «mafoiy» qismi o'ziga teng bo'lgan faulun rukni bilan almashtiriladi va **mahzuf** deb yuritiladi.

3. **Faal** – «jabb» («bichish») zihofiga duch kelib, keyingi ikki sababning tushirilishidan hosil bo'ladi: mafoiyulun ruknining «faulun» qismi tushirilgach, qolgan «mafo» qismi o'ziga teng faal rukni bilan almashtirilib, **ajabb** deb yuritiladi.

4. **Fa** – «batar» («ildizdan ag'darish») zihofiga duch kelishdan hosil bo'ladi: mafoiyulun ruknining oldingi uch bo'g'inini – «mafoiy» qismi tushirilgach, qolgan «lun» qismi o'ziga teng fa' rukni bilan almashtiriladi va **abtar** deb yuritiladi.

### II. Bo'g'inlarning sifat jihatidan o'zgarishi natijasida hosil bo'lgan tarmoq ruknlari

Mafoiyulun rukni tarkibidagi bo'g'inlarning sifat jihatidan o'zgarishi, ya'ni cho'ziq bo'g'inlarning qisqa bo'g'inlarga va aksincha o'zgartirilishi natijasida quyidagi tarmoq ruknlari hosil bo'ladi:

1. **Mafoilun** – «qabz» («ushlab qolish») zihofiga duch kelib, uchinchi, cho'ziq bo'g'inning qisqa bo'g'inga aylantirilishidan hosil bo'ladi va **maqbu**z deb yuritiladi.

2. **Mafojylu** – «kaff» («qaytarish») zihofiga duch kelgan bo'g'ining qisqa bo'g'iga aylantirilishi deb yuritiladi.
3. **Mafojylon** – «tasbig'» («to'ldirish») zihofiga duch kelgan bo'g'ining o'ta cho'ziq bo'g'iga aylantirilishi deb yuritiladi.
7. **Faulun** (V--~) – musabbag'
8. **Foilun** (~V~) – maqbut
9. **Faal** (V~) – ajabb
10. **Faul** (V~) – axtam
11. **Fa'** (~) – abtar
12. **Fo'** (~) – azall

### III. Bo'g'inlarning ham son, ham sifat jihatidan o'zgarish natijasida hosil bo'lgan tarmoq ruknlar

Mafojylun rukni tarkibidagi bo'g'inlarning ham son, ham sifat jihatidan o'zgarishi, ya'ni bo'g'inlarning tushirilishi, axtam bo'g'iga aylantirilishi natijasida quyidagi tarmoq ruknlar hosil bo'ladi.

1. **Foilun** – «shatar» («aybli qilish») zihofiga duch kelib, kekinchi bo'g'ini tushirilib, ayni vaqtda, uchinchi bo'g'ining qisqa bo'g'iga aylantirilgach, qolgan «foilun» qismi **ashtar** deb yuritiladi.

2. **Faul** – «xatm» («tishni sindirish») zihofiga duch kelib, kekinchi bo'g'ini tushirilib, ayni vaqtda, ikkinchi, cho'ziq bo'g'ining o'ta cho'ziq bo'g'iga aylantirilishidan hosil bo'ladi va **axtam** deb yuritiladi.

3. **Mafojyl** – «qasr» («qisqartirish») zihofiga duch kelib, oxirgi bo'g'ining tushirilishi va uchinchi, cho'ziq bo'g'ining o'ta cho'ziq bo'g'iga aylantirilishidan hosil bo'ladi va **maqsur** deb yuritiladi.

4. **Maf'ulu** – «xarb» («vayron qilish») zihofiga duch kelib, oxirgi bo'g'ining tushirilishi, ayni vaqtda, to'rtinchi bo'g'inning qisqa bo'g'iga aylantirilishidan hosil bo'ladi. Bunday o'zgarish almashiriladi va **axrab** deb yuritiladi.

5. **Fo'** – mafojylun ruknining «zalat» («sonning go'shtsiz bo'lib qolishi») zihofiga duch kelib, birinchi, uchinchi va to'rtinchi bo'g'inlarning tushirilishi, ayni vaqtda, qolgan ikkinchi bo'g'ining o'ta cho'ziq bo'g'iga aylantirilishidan yuzaga keladi va **azall** deb yuritiladi.

Demak, mafojylun ruknining turli zihoflarga duch kelishi natijasida uning quyidagi tarmoqlari (furu'lari) hosil bo'ladi:

Mafojylun ruknining tarmoqlari shu ruknning takrori asosiga yuritilgan hazaj bahri vaznlarida, shuningdek, mafojylun rukni ishtirokida tuziladigan muzore' bahrlarining vaznlarida qo'llaniladi.

Bahr – aruz she'riy o'lchov sistemasining asosiy turlaridan biri. Har qaysi bahr esa ko'plab vaznlarni – shu baharning tarmoqlarini o'z ichiga oladi.

Vaznlarni aniqlash uchun she'riy asar baytlari, aksariyat, birinchi bayti – matlayi vaznga muvofiq o'qiladi. So'ng har qaysi baytning bo'laklarga – ruknlarga ajratilib, ularning biz ko'rib o'tgan tarmoqlaridagi asl yoki tarmoq ruknlarga teng ekanligi og'zaki yoki yozma tarzda – sxemasini chizish yo'li bilan aniqlanadi. Tarmoq rukni aslidan hosil qilingani belgilangach, bahr ma'lum bo'ladi.

Shundan keyin bir baytda shu rukn necha marta takrorlanib, qaysi tarmoq ko'ra vaznning 4, 6 yoki 6 ruknligini yoxud murabba', musaddas yoki musamman ekanligini bilib olamiz. Har qaysi ruknning nomini belgilab, shu bayt misralarida qaysi ruknlar ishtirok etganini hisobga olib vaznni topamiz.

Baytlardagi har qaysi ruknning o'z o'rniga ko'ra nomi bor. Uning misraning birinchi rukni **sadr**, oxirgisi **aruz**, keyingi misraning birinchi rukni **ibtido**, oxirgisi **zarb**, qolgan ruknlar esa **hashv** deb ataladi. Jumladan, 8 ruknli baytda ular quyidagicha joylashadi:

<b>sadr</b>	<b>hashv</b>	<b>hashv</b>	<b>aruz</b>
<b>ibtido</b>	<b>hashv</b>	<b>hashv</b>	<b>zarb</b>

6 ruknli baytda esa ular

<b>sadr</b>	<b>hashv</b>	<b>aruz</b>
<b>ibtido</b>	<b>hashv</b>	<b>zarb</b>

shu tarzda o'rin oladi.

Masalan, Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonidan olingan

*Nedur ahvoling, ey zori g'aribim,  
Visolim davlatidin benasibim, —*

baytining, u orqali esa butun dostonning vaznini aniqlamoq bo'lsak, avvalo, baytni ifodalay o'qiydigan, so'ng uni:

*Ne dur ahvo ling, ey zori g'aribim,  
Visolim dav latidin be nasibim,*

tarzida ritmik bo'lak — ruknlarga ajratamiz. Har qaysi rukn bo'linib o'zlashtirilgan ruknlarning asl ko'rinishi yoxud biron tarmog'iga teng keladi, o'sha asl yoxud tarmog'ni og'zaki aniqlaymiz. Ko'rinib turibdiki, misralarning birinchi — *sadr* va *ibtido'* hamda o'rtadagi — *hashv* ruknlari mafoiylunga, misralar oxiridagi *aruz* va *zarb* ruknlari faulunga teng.

Og'zaki aniqlash mushkul tuyulsa, har qaysi rukn sxemasini belgilab chiqish mumkin. Bayt ruknlari sxemasini chizsak, shunday manzara hosil bo'ladi:

*Ne-dur ah-vo- ling ey zo-ri g'a-ri-bim,  
V - - - - V - - - - V - - - -  
Vi-so-lim dav- la-ti-din be- na-si-bim.  
V - - - - V - - - - V - - - -*

Oldingi sxemalar mafoiylun, oxirigisi esa faulunga tengligi ko'rinib turibdi. Faulun — mafoiylun ruknining mahzuf tarmog'i. Misralarda mafoiylun rukni takrorlanayotgan ekan, demak, bayt hazaj bahrida yozilgani ma'lum bo'ldi. Baytda 6 rukn qo'llangan, demak, u musaddas, ya'ni olti ruknli vaznda yozilgan. Sadr, ibtido', hashvlar solim, aruz va zarb esa mahzuf ko'rinishida. Binobarin, bayt vazni hazaji musaddas, sadr, ibtido' va hashvlar — solim, aruz va zarb mahzuf tarzida ifodalanadi. Lekin aruz imida vaznlarni qisqacha, solim ruknlarni ko'rsatmay, faqat tarmoq ruknlariga ta'kidlash qabul qilingan. Shunga ko'ra, mazkur vazni *hazaji musaddasi mahzuf* deb ifodalash mumkin. Demak, vazni qisqa ifodalash uchun bayt yoxud she'rning qaysi bahrida yozilganligi, ruknlar soni hamda misralarda qanday tarmoq ruknlar qo'llanganini ko'rsatish kerak ekan.

## HAZAJ BAHRI VAZNLARI

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, hazaj bahri mafoiylun ruknining har bir misralarida takrorlanishiga asoslanadi. Shu asl rukn va uning qo'llanilgan tarmoqlari (furu'lari) hazaj bahrining ko'pgina vaznlarini belgilash imkonini yaratadi.

Adabiyotimizda hazaj bahrining musaddas (olti ruknli), musammam (sakkiz ruknli) hamda mustazod (orttirilgan, 12 ruknli) vaznlari ko'p qo'llanilgan. Shulardan eng muhimlari bilan tanishtirib o'taylik.

### Olti ruknli vaznlar

Hazaj bahrining bu xil vaznlaridan to'rttasi she'riyatimizda ko'p uchraydi.

